V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

MATEMATIKA INSTITUTI

TURSUNALIYEV TO‘YCHIVOY G‘ANIJON O‘G‘LI

BOSHQARUV FUNKSIYALARIGA GEOMETRIK VA EKSPONENSIAL CHEGARALI DIFFERENSIAL O‘YINLARDA KO‘P QUVLOVCHIDAN QOCHISH MASALASI

01.01.02 - Differensial tenglamalar va matematik fizika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent - 2025

UDK: 517.977.5/.978.4

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

**V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MATEMATIKA INSTITUTI

TURSUNALIYEV TO‘YCHIVOY G‘ANIJON O‘G‘LI

BOSHQARUV FUNKSIYALARIGA GEOMETRIK VA EKSPONENSIAL CHEGARALI DIFFERENSIAL O‘YINLARDA KO‘P QUVLOVCHIDAN QOCHISH MASALASI

01.01.02 - Differensial tenglamalar va matematik fizika

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2025

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/FM1006 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-saytida (http://kengash.mathinst.uz) va “Ziyonet” ta’lim axborat tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ibragimov G‘ofurjon Ismoilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Ro‘ziboyev Marks Botirboevich fizika-matematika fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «9» dekabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99 871) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (215-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9 uy. Tel.: (+99 871) 207 91 40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil «25» noyabrdagi 2-raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

A.A. Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ilmiy-texnik taraqqiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishi ko'plab jarayonlarni matematik boshqaruv nazariyasi asosida tahlil qilishni talab etmoqda. Shu jumladan, differensial o'yinlar nazariyasi ham murakkab dinamik tizimlarni modellashtirish va ularning amaliy sohalarda qo'llanilishini ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Konfliktli dinamik jarayonlar differensial tenglamalar orqali ifodalanganda, ular differensial o'yinlar muammosi sifatida o'rganiladi. Ularning umumiy xususiyatlari o'zaro bog'liq bo'lgani sababli, bunday jarayonlar ko'pincha dinamik o'yinlar nazariyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Mazkur yondashuv texnika, iqtisodiyot, biologiya, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalarda optimal boshqaruv hamda samarali strategiyalarni ishlab chiqishda keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, differensial o'yinlar nazariyasining elementlarini to'g'ri aniqlash va ulardan samarali foydalanish zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda bugungi kunda konfliktli dinamik jarayonlarni boshqarish va optimallashtirish uchun differensial o'yinlar sohasidagi turli masalalardagi olingan natijalar keng qo'llanilmoqda. Oddiy va chiziqli differensial tenglamalar bilan tavsiflanuvchi ko'p quvlovchidan qochish differensial o'yinlar va uning tatbiqlari bo'yicha birinchi ustuvor yo'nalishlarda qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'yinchilarning boshqaruvlariga geometrik chegaralar qo'yilgan holda ko'p quvlovchidan qochish masalalari, amaliyotda ko'p uchraydigan ziddiyatli sharoitlardan kelib chiquvchi fizik jarayonlarga mos keladi. Shu bilan birga, amaliy masalalarni yechishda yanada murakkab cheklovlar paydo bo'lishi mumkin. Jumladan, eksponensial cheklovlar bilan ifodalangan differensial o'yinlarda ko'p quvlovchidan qochish muammolarini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega va bunday hollar dissertatsiyada har tomonlama o'rganiladi. Bu borada texnikada, iqtisodiyotda va boshqa turli sohalarida ularning qo'llanilishiga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda innovatsion texnologiyalarni rivojlatirish uchun fundamental fanlarning asosiy rolini hisobga olgan holda ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish doirasida ishlab chiqilgan strategiyalar doirasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, differensial tenglamalar, matematik-fizika tenglamalari, algebra va funksional analiz, shuningdek, matematik analiz sohalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida rivojlantirish bo'yicha muhim vazifalar belgilangan.[1] Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, dinamik sistemalar, differensial tenglamalar, optimal boshqaruv va diifferensial o'yinlar nazariyalarini takomillashtirishda geometrik va eksponensial cheklovlarga ega ko'p

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi №PQ-4387 "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

quvlovchidan qochish differensial o‘yinlari uchun optimal yechimlarni ta’minlaydigan boshqaruv modellarini qurish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Differensial o‘yinlar tushunchasini amerikalik matematik R. Aysaks tomonidan asos solingan. Differensial o‘yinlarning fundamental nazariyasi asoschilari sifatida ko‘riladigan olimlarning ilmiy ishlari ushbu sohaning nazariy asoslarini shakllantirdi, yangi metodlarni ishlab chiqish va ularni turli amaliy jarayonlarga tatbiq etishda muhim o‘rin tutdi. Jumladan, L.S. Pontryagin, N.N. Krasovskiy, L.D. Berkovits, W.H. Fleming, A. Fridman, A. Bryson, E.F. Mishchenko, A.I. Subbotin, Yu.S. Osipov, B.N. Pshenichniy, N.Yu. Satimov, L.A. Petrosyan va A.A. Azamov. A.A. Chikriy, N.L. Grigorenko, N.Yu. Lukoyanov, A.G. Pashkov, N. Nikandr Petrov, B.N. Pshenichniy, I.S. Rappoport, kabi olimlar e’tirof etiladi. Ularning ishlari differensial o‘yinlarning nazariy asoslarini yaratib, boshqaruv nazariyasi, variatsion hisoblash va optimal boshqaruv masalalarida keng qo‘llaniladigan metodlarni ishlab chiqishga zamin yaratdi. Mazkur olimlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalar bugungi kunda ko‘p quvlovchi va qochuvchi ishtirokidagi differensial o‘yinlar, boshqaruv funksiyalariga cheklovlar qo‘yilgan dinamik sistemalar hamda amaliyotda uchraydigan ko‘plab optimallik masalalarini hal etishda asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Cheksiz vaqt oraliqida qochish masalasi ilk bor L.S. Pontryagin va E.F. Mishchenko tomonidan kiritilib o‘rganilgan. E.F. Mishchenko esa ko‘p quvlovchilar ishtirokidagi masalalarda qochish uchun yangi manevrni taklif qilgan. Tadqiqotlarning muhim qismi oddiy harakatli ko‘p o‘yinchidan iborat qochish differensial o‘yinlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Keyinchalik F.L. Chernous’ko tezroq qochuvchi va bir nechta quvlovchilar ishtirokidagi qochish o‘yinini o‘rganib, tezroq qochuvchi quvlovchilardan qutulishi mumkinligini isbotladi. Ushbu natijalar keyinchalik F.L. Chernous’ko va V.L. Zak tomonidan yanada umumiy differensial o‘yin masalalariga kengaytirildi. Shuningdek, quvlovchilar guruhidan qochish bilan bog‘liq masalalar ham o‘rganilgan.

Mamlakatimizda differensial o‘yinlar bo‘yicha A.A. Azamov, G‘.I. Ibragimov, N.A. Mamadaliyev, M.Sh. Mamatov, O.Sh. Qo‘chqarov, B.B. Rixsiyev, N.Yu. Satimov, B.T. Samatov, Tuxtasinov va boshqalar geometrik va integral chegaralanishlar sharoitida ko‘p ishtirokchili diskret va differensial o‘yinlarda quvish-qochish masalalarini tadqiq qilib, bunday masalalarni yechish usullarini yanada kengaytirganlar. Ularning ishlari quvuvchi va qochuvchi strategiyalarining optimal qurilishi evaziga differensial o‘yinlarning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanmalarini rivojlantirishga muhim hissa qo‘shgan. Xususan, ba’zi tadqiqotlarda quvuvchining yetib olish vaqti aniq hisoblangan, qochuvchining qochish imkoniyatlarini kafolatlovchi shartlar berilgan.

F.L. Chernous’ko bitta tezroq qochuvchi va bir nechta quvlovchidan iborat differensial o‘yinni tahlil qilib, qochuvchi tezlikda ustunlikka ega bo‘lganda samarali strategiya mavjudligini ko‘rsatdi. V.L. Zak esa bu masalani rivojlantirib, ko‘p quvlovchilar ishtirokidagi qochish strategiyalarini umumiylashtirdi. Keyinchalik, F.L. Chernous’ko va V.L. Zak birgalikda ushbu natijalarni chuqurlashtirib, optimal trayektoriyalar mavjudligi va ularning barqarorligini asoslab berdilar. Natijada, ularning ishlari differensial o‘yinlarda ko‘p quvlovchilardan qochish masalalarining nazariy asoslarini yaratdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bo‘yicha olib borilayotgan “Dinamik va boshqariluvchi sistemalar” dasturi doirasida tayyorlangan.

Tadqiqotning maqsadi o‘yinchilarning boshqaruv funksiyalari geometrik va eksponensial cheklovlarni qanoatlantiruvchi differensial o‘yinlarda ko‘p quvlovchilardan qochish masalalarini hal qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshqaruv funksiyalari geometrik chegaralanishga ega chiziqli differensial o‘yinlarda ko‘p quvlovchilardan qochish masalalari yechilishini kafolatlovchi yetarli shartlarini aniqlash;

boshqaruv funksiyalari geometrik chegaralanishga ega chiziqli differensial o‘yinlarda quvlovchilar soni ikkiga teng bo‘lgan hol uchun yaqinlashish vaqtlarini aniq qiymatini aniqlash;

boshqaruv funksiyalari geometrik va eksponensial chegaralanishga ega differensial o‘yinlarda ko‘p quvlovchilardan qochish masalalarida qochuvchi uchun strategiya qurish va uning joizligini ko‘rsatish;

boshqaruv funksiyalari eksponensial chegaralanishga ega oddiy differensial o‘yinlarda ko‘p quvlovchilardan qochish masalalari yechilishini kafolatlovchi qochuvchi uchun strategiya qurish va yetarli shartlarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Boshqaruvlariga geometrik va eksponensial integral cheklovlar qo‘yilgan holda ko‘p quvlovchidan qochish differensial o‘yinlari.

Tadqiqotning predmeti. Qochuvchi uchun qochishni kafolatlaydigan strategiya qurish hamda geometrik va eksponensial integral cheklovlarda qochish differensial o‘yinini hal qilish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida ko‘p quvlovchidan qochish masalasini yechish uchun qochuvchiga strategiya ishlab chiqildi va quvlovchi hamda qochuvchi orasidagi masofani quyidan baholash usuli qo‘llanildi. Yechimlarni asoslashda oddiy differensial tenglamalar nazariyasi, funksional analiz, differensial o‘yinlar nazariyasi hamda optimal boshqaruv nazariyasi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshqaruv funksiyalari geometrik cheklovli chiziqli differensial o‘yinlarda bir quvlovchi va bir qochuvchidan iborat masalada qochishni kafolatlovchi qochuvchi uchun strategiya qurilgan hamda quvlovchi va qochuvchi orasidagi masofa quyidan baholangan;

boshqaruv funksiyalari geometrik cheklovli chiziqli differensial o‘yinlarda ikki quvlovchiga ega qochish masalasida qochuvchi uchun strategiya qurilib, yaqinlashish vaqtlari soni 3 dan oshib ketmasligi isbotlangan;

boshqaruv funksiyalari geometrik cheklovli chiziqli qochish differensial o‘yinlarida m quvlovchiga ega qochish masalasida qochuvchi uchun strategiya qurilib, har bir guruh hujumidan so‘ng eng kamida bitta quvlovchi keyingi guruh hujumida ishtirok etmasligi hamda quvlovchilarning yaqinlashish vaqtlari soni $m(m+1)/2$ dan oshib ketmasligi isbotlangan;

o‘yinchilarning boshqaruv funksiyalari eksponensial integral cheklovli sodda harakatli differensial o‘yinlarda qochuvchi uchun strategiya qurilib uning joizligi va quvlovchilarning yaqinlashish vaqtlari soni m dan oshmasligi isbotlangan, shuningdek ko‘p quvlovchilardan qochish masalalari yechilishining yetarli shartlari va o‘yinchilar orasidagi masofaning quyi chegarasi topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi. Dissertatsiya doirasida erishilgan natijalar va ularni isbotlashda qo‘llanilgan usullar ziddiyatli boshqaruv jarayonlarini ifodalovchi matematik modellarni bevosita qochish masalalariga tatbiq etish imkonini beradi. Tadqiqotda olingan natijalar sonli misollar bilan tahlil qilingan va ularning geometrik ko‘rinishlari ham taqdim etilgan. Bu esa tadqiqot ishidagi masalalarning real jarayonlarni matematik modellashtirishda samarali ishlatilishiga muhim hissa qo‘shadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Oddiy differensial tenglamalar nazariyasi, optimal boshqaruv, funksional analiz, dinamik sistemalar nazariyasi va differensial o‘yinlar nazariyasi metodlaridan foydalangan holda matematikada qabul qilingan xulosalar, jumladan, teorema va xossalarga asoslangan holda kafolatlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshqaruvlari geometrik va eksponensial integral chegaralanish bilan ifodalangan ziddiyatli boshqaruv masalalarining yechimini ta’minlovchi strategiyalarni qurish va ularni amaliyotda qo‘llash bilan belgilanadi. Olingan ilmiy natijalar optimal boshqaruv va differensial o‘yinlar nazariyalaridagi mavjud metodlarni yanada takomillashtirish hamda ularning amaliy tatbiqi bilan bog‘liq murakkab muammolarning samarali yechimlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oddiy va chiziqli differensial tenglamalar orqali ifodalangan qochish differensial o‘yinlari asosida yaratilgan matematik modellarni turli murakkab real jarayonlarga tatbiq etish imkonini beradi. Ushbu natijalar harbiy sohada havo hujumidan strategik mudofaa, robototexnika va sun’iy intellektda avtonom vositalar uchun xavfsiz boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqish, shuningdek, muhandislik va ekologiya sohalarida ziddiyatli boshqaruv masalalari uchun strategiyalarni aniqlash va hisoblash dasturlarini yaratishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshqaruvlari geometrik va eksponensial cheklovli ko‘p quvlovchilardan qochish differensial o‘yinlari bo‘yicha olingan natijalar asosida:

boshqaruv funksiyalari geometrik cheklovlar qo‘yilgan chiziqli differensial o‘yinlarda ko‘p quvlovchidan qochish masalalari yechilishini kafolotlovchi shartlaridan 374874-2022 raqamli “Fazaviy o‘tishlar va tahliliy hodisalar masalalari. Ularning tez o‘tish tenglamalari va asimptotikalarining matematik xususiyatlari” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida chiziqli differensial tenglamalar uchun analogik masalalarni yechishda foydalanilgan (O‘sh davlat universitetining 2025-yil 17-sentabrdagi 1254-sonli ma’lumotnomasi, Qirg‘iziston Respublikasi). Ilmiy natijaning qo‘llanishi chiziqli differensial tenglamalar bilan ifodalangan fazaviy o‘tishlar va tahliliy hodisalar masalalarining to‘liq yechimlarini ko‘rsatish imkonini bergan;

boshqaruv funksiyalari eksponensial integral cheklovlarga ega oddiy differensial o‘yinlarda ko‘p quvlovchidan qochish masalalari bo‘yicha olingan natijalardan Reggio Kalabriya O‘rta yer dengizi universitetining “Qarorlar laboratoriyasi tadqiqot dasturi” mavzusidagi loyihasida differensial o‘yinlar masalalarini yechishda foydalanilgan (Reggio Kalabriya O‘rta yer dengizi universitetining 2025-yil 4-sentyabrdagi ma’lumotnomasi, Italiya). Ilmiy natijaning qo‘llanishi Evklid fazosida berilgan differensial o‘yinlarda chekli sondagi quvlovchiga ega qochish masalasida agar qochuvchi qochish strategiyasini qo‘llasa quvlovchilarning ixtiyoriy joiz boshqaruvlariga qarshi muvaffaqiyatli qochish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan bo‘lib, shulardan 7 tasi xalqaro va 2 tasi respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlardir.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi doirasida jami 14 ta ilmiy maqola chop etilgan bo‘lib, ularning 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi himoyasi uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Shundan 4 tasi respublika ilmiy jurnallarida, 1 tasi Scopus bazasiga kiruvchi xalqaro jurnalda, qolgan 9 tasi esa tezislardir.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 87 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari aniqlangan hamda ilmiy yangiligi bayon etilgan. Shuningdek, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Birinchi bob **“Geometrik cheklovlarga ega ikki quvlovchi va bir qochuvchidan iborat differensial o‘yinda qochish masalasi”** deb nomlanib, boshqaruv funksiyalari geometrik cheklovlarga bo‘ysunuvchi chiziqli differensial o‘yinlardagi ikki quvlovchidan qochish masalalari o‘rganiladi va qochuvchi uchun strategiya quriladi.

Faqar qilaylik, $\mathbb{R}^n$, $n \geq 2$ fazoda harakatlanuvchi x_1 va x_2 quvlovchilar hamda y qochuvchi berilgan bo‘lsin. Quvlovchilar guruhini $x=(x_1,x_2)$ bilan, ularning boshqaruv parametrlarini $u=(u_1,u_2)$ bilan ifodalaymiz va ularning dinamikasi quyidagi tenglamalar bilan ifodalanadi

$$\begin{aligned} &\dot{x}_i = -\lambda x_i + u_i, \quad x_i(0) = x_{i0}, \qquad |u_i| \leq 1, \\ &\dot{y} = -\lambda y + v, \qquad y(0) = y_0, \qquad |v| \leq \sigma, \end{aligned} \tag{1}$$

bu yerda $x_i, x_{i0}, y, y_0, u_i, v \in \mathbb{R}^n$, $\lambda > 0$; $x_i(0) = x_{i0}$ va $y(0) = y_0$ o‘yinchilarning boshlang‘ich holatlari bo‘lib, ular boshlang‘ich vaqtda qochuvchining boshlang‘ich holati bilan ustma-ust tushmaydi ya’ni $x_{i0} \neq y_0$, $i = 1,2$. σ, $\sigma > 1$ berilgan son, u_i va v mos ravishda x_i quvlovchining hamda y qochuvchining boshqaruv parametrlari.

1-ta’rif. O‘lchovli $u_i(t)$, $|u_i(t)| \leq 1$ va $v(t)$, $|v(t)| \leq \sigma$, $t \geq 0$ funksiyalar x_i, $i \in \{1,2\}$ quvlovchining va y qochuvchining joiz boshqaruvlari deyiladi.

2-ta’rif. $V: \mathbb{R}_+ \times \mathbb{R}^{5n} \to \mathbb{R}^n$, $(t, y, x_1, x_2, u_1, u_2) \to V(t, y, x_1, x_2, u_1, u_2)$ funksiya qochuvchining strategiyasi deyiladi agar quvlovchilarning ixtiyoriy joiz $u_1 = u_1(t)$, $u_2 = u_2(t)$ boshqaruvlari uchun quyidagi Koshi masalasi

$$\begin{aligned} &\dot{x}_i = -\lambda x_i + u_i, \quad x_i(0) = x_{i0} \\ &\dot{y} = -\lambda y + V(t, y, x_1, x_2, u_1, u_2), \quad y(0) = y_0 \end{aligned}$$

yagona $(y(t), x_1(t), x_2(t))$ yechimga ega bo‘lsa.

3-ta’rif. Quvlovchilarning ixtiyoriy $u_i = u_i(t),\ i=1,2$ boshqaruvlari uchun qochuvchining shunday V strategiyasi mavjud bo‘lib, barcha $t \ge 0$ va $i=1,2$ uchun $x_i(t) \ne y(t)$ shart bajarilsa, (1) qochish differensial o‘yinida qochish mumkin deyiladi.

1-masala. Masala qochuvchi uchun V strategiya qurish va (1) qochish differensial o‘yini yechishdan iborat.

Dastlab $n=2$ holda bir quvlovchi va bir qochuvchidan iborat qochish differensial o‘yinini ko‘rib chiqamiz. x quvlovchi va y qochuvchining dinamikasi quyidagi tenglamalar orqali berilgan

$$\begin{aligned} &\dot{x} = -\lambda x + u, \quad x(0) = x_0, \quad |u(t)| \le 1, \\ &\dot{y} = -\lambda y + v, \quad y(0) = y_0, \quad |v(t)| \le \sigma, \end{aligned} \tag{2}$$

bu yerda $x, x_0, y, y_0, u, v \in \mathbb{R}^2$, $\lambda > 0$, $x_0 \ne y_0$.

(2) tenglamaning yechimlari

$$x(t) = x_0 e^{-\lambda t} + \int_0^t e^{-\lambda(t-s)} u(s)ds, \quad y(t) = y_0 e^{-\lambda t} + \int_0^t e^{-\lambda(t-s)} v(s)ds.$$

hisoblanadi va bu harakat trayektoriyalarida $\xi(t) = e^{\lambda t} x(t),\ \eta(t) = e^{\lambda t} y(t)$ kabi almashtirish bajaramiz, u holda quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\xi(t) = x_0 + \int_0^t e^{\lambda s} u(s)ds, \quad \eta(t) = y_0 + \int_0^t e^{\lambda s} v(s)ds.$$

Buning natijasida, x quvlovchini ξ va y qochuvchini η deb ataymiz.

Biz α va a sonlarini quyidagicha kiritib olamiz

$$0 < \alpha < \frac{1}{2}(\sigma - 1), \qquad 0 < a < |x_0 - y_0|.$$

Biz endi qochuvchi uchun strategiya qurib olamiz. Dastlab, qochuvchi boshlang‘ich $t=0$ vaqtdan boshlab Oy-o‘qiga parallel quyidagi o‘zgarmas boshqaruv bilan harakatlansin

$$V(t) = V_0 = (0, \sigma),\ t \in [0, \tau), \tag{3}$$

bu yerda $V_1(t) = 0$, $V_2(t) = \sigma$ hamda $t = \tau$ vaqt $|\xi(t) - \eta(t)| = a$ shart bajariladigan birinchi vaqt hisoblanadi. Biz τ vaqtni quvlovchini qochuvchiga a-yaqinlashish vaqti deb ataymiz. 1-chizmadagi y_0 va $\eta(\tau)$ ga to‘g‘ri keluvchi kesma qochuvchining (3) boshqaruviga mos trayektoriyasidir.

Shuni ta’kidlash kerakki τ vaqt ro‘y bermasligi mumkin, bu holda barcha $t \ge 0$ uchun $|\xi(t) - \eta(t)| > a$ tengsizlikga ega bo‘lamiz va ravshanki barcha $t \ge 0$ uchun $\xi(t) \ne \eta(t)$ shart bajariladi. Shuning uchun, biz τ vaqt ro‘y bersin deb tasavvur qilamiz.

Shuningdek, τ' vaqtni quyidagicha aniqlaymiz

$$\tau' = \frac{1}{\lambda} \ln\left(e^{\lambda\tau} + \frac{2\lambda a}{\sigma - 1 - \alpha} \right).$$



Chizma 1. Qochuvchi trayektoriyasi, bunda $\xi_1(\tau) \le \eta_1(\tau)$.

Qochuvchi $[\tau, \tau')$ oraliqda quyidagi strategiyani qo‘llaydi

$$V(t) = (V_1(t), V_2(t)), \quad t \in [\tau, \tau'), \tag{4}$$

bu yerda

$$V_1(t) = \begin{cases} |u_1(t)| + \alpha, & \xi_1(\tau) \le \eta_1(\tau) \\ -(|u_1(t)| + \alpha), & \xi_1(\tau) > \eta_1(\tau) \end{cases}, \quad V_2(t) = \sqrt{\sigma^2 - V_1^2(t)}. \tag{5}$$

Ravshanki, $|V_1(t)| \le |u_1(t)| + \frac{1}{2}(\sigma - 1) \le \sigma$, shuning uchun $V_2(t)$ aniqlangan. Biz (4) orqali aniqlangan $V(t)$ ni ξ quvlovchining η qochuvchiga qarshi manyovri deb ataymiz. Qochuvchi strategiyasining yakuniy qismi sifatida, quyidagini olamiz

$$V(t) = V_0 = (0, \sigma), \ t \ge \tau'. \tag{6}$$

1-lemma. Qochuvchi (3), (4) va (6) strategiyalardan foydalansin, bu yerda τ vaqt ξ quvlovchining η qochuvchiga a-yaqinlashish vaqti. U holda

$$|\eta(t) - \xi(t)| \ge a, \qquad 0 \le t \le \tau,$$

$$|\eta(t) - \xi(t)| > \frac{\alpha a}{2\sigma}, \ \tau \le t \le \tau',$$

$$\eta_2(t) - \xi_2(t) > a, \qquad t \ge \tau',$$

tengsizliklar bajariladi.

1-teorema. Ikki quvlovchi va bitta qochuvchining har qanday boshlang‘ich holatlari uchun, (1) o‘yinda qochish mumkin bo‘ladi.

Agar $\tau_2 < \tau_1'$ bo‘lsa, u holda $\tau_2' - \tau_1' \le \dfrac{2a_2}{\sigma - 1 - \alpha_1}$ tengsizlik bajariladi.

2-lemma. Qochuvchi $v(t) = \begin{cases} V_1(t), & t \in [\tau_1, \tau_2), \\ V_2(t), & t \in [\tau_2, \tau_2'), \end{cases}$ strategiyadan foydalansin va $\tau_1' \le \tau_2'$ bo‘lsin, u holda

$$|\eta(t)-\zeta(t)|\le \frac{8\sigma e^{\lambda T}}{\sigma-1-\alpha_1}a_2, \qquad \tau_1\le t\le \tau_1'$$

tengsizlik bajariladi.

3-lemma. Qochuvchi $v(t)=\begin{cases}V_1(t), & t\in[\tau_1,\tau_2)\\ V_2(t), & t\in[\tau_2,\tau_2')\end{cases}$ strategiyadan foydalansin va $\tau_1'\le\tau_2'$ bo‘lsin, u holda ξ_1 quvlovchi uchun ushbu

$$|\eta(t)-\xi_1(t)|>a_2, \quad \tau_1\le t\le\tau_2'$$
$$\eta_2(t)-\xi_{12}(t)>a_2, \quad \tau_1'\le t\le\tau_2'$$

tengsizliklar bajariladi.

4-lemma. Qochuvchi $v(t)=\begin{cases}V_1(t), & t\in[\tau_1,\tau_2)\\ V_2(t), & t\in[\tau_2,\tau_2')\end{cases}$, strategiyadan foydalansin va $\tau_1'\le\tau_2'$ bo‘lsin, u holda har ikki quvlovchi uchun

$$\eta_2(t)-\xi_{p2}(t)>a_2, \quad t\ge\tau_2'$$

tengsizlik barcha $p=1,2$ larda bajariladi.

5-lemma. Qochuvchi $v(t)=\begin{cases}V_1(t), & t\in[\tau_1,\tau_2)\\ V_2(t), & t\in[\tau_2,\tau_2')\end{cases}$, strategiyadan foydalansin va $\tau_2'\le\tau_1'$ bo‘lsin, u holda ikkinchi quvlovchi uchun

$$\eta_2(t)-\xi_{22}(t)>a_2, \quad t\ge\tau_2'$$

tengsizlik bajariladi.

Ikkinchi bob **“Ko‘p quvlovchilardan qochish chiziqli differensial o‘yini”** deb nomlanadi va bunda quvlovchilar soni umumlashtirilgan hol uchun qochish masalasi hal qilinadi, ya’ni m ta quvlovchili qochish differensial o‘yini ko‘rilgan. Guruh hujumi tushunchasi kiritilib, har bir guruh hujumdan so‘ng kamida bitta quvlovchi qochuvchidan ortda qolishi isbotlanadi. Bu esa ushbu bobning asosiy natijasi quvlovchilarning τ_k yaqinlashish vaqtlari soni ko‘pi bilan

$$m+(m-1)+\ldots+1=m(m+1)/2$$

dan oshmasligini ko‘rsatadi.

$\mathbb{R}^n$, $n\ge 2$ fazoda m ta $x_1,\ldots,x_m$ quvlovchilar va bitta y qochuvchi ishirokidagi qochish differensial o‘yini quyidagi chiziqli tenglamalar bilan berilgan. Quvlovchilar guruhini $x=(x_1,x_2,\ldots,x_m)$ bilan, ularning boshqaruv parametrlarini $u=(u_1,u_2,\ldots,u_m)$ bilan belgilaymiz

$$\begin{aligned}\dot{x}_i&=-\lambda x_i+u_i, & x_i(0)&=x_{i0}, & |u_i|&\le 1\\ \dot{y}&=-\lambda y+v, & y(0)&=y_0, & |v|&\le\sigma\end{aligned} \tag{7}$$

bu yerda $x_i,x_{i0},y,y_0,u_i,v\in\mathbb{R}^n$, $\lambda>0$; $x_i(0)=x_{i0}$ va $y(0)=y_0$ o‘yinchilarning boshlang‘ich holatlari, boshlang‘ich vaqtda hech bir quvlovchining boshlang‘ich holati qochuvchining boshlang‘ich holati bilan ustma-ust tushmaydi ya’ni $x_{i0}\ne y_0$, $i=1,2,\ldots,m$, va σ, $\sigma>1$ berilgan son, bu yerda u_i va v mos ravishda x_i quvlovchining hamda y qochuvchining boshqaruv parametrlari.

4-ta'rif. O'lchovli $u_i(t)$, $|u_i(t)|\le 1$, va $v(t)$, $|v(t)|\le\sigma$, $t\ge 0$ funksiyalar mos ravishda x_i, $i\in\{1,2,\ldots,m\}$ quvlovchilarning va y qochuvchining boshqaruvlari deyiladi.

5-ta'rif. $V:\mathbb{R}_+\times\mathbb{R}_+\times\mathbb{R}_+\times\mathbb{R}^{(2m+1)n}\to\mathbb{R}^n$ funksiya qochuvchining strategiyasi deyiladi

$$(t,\varphi_1,\varphi_2,y,x_1,\ldots,x_m,u_1,\ldots u_m)\to V(t,\varphi_1,\varphi_2,y,x_1,\ldots,x_m,u_1,\ldots u_m)$$

agar quvlovchilarning ixtiyoriy joiz $u_1=u_1(t),\ldots,u_m=u_m(t)$ boshqaruvlari va $\varphi_1=\varphi_1(t)$, $\varphi_2=\varphi_2(t)$ funksiyalar uchun quyidagi Koshi masalasi

$$\dot{x}_i=-\lambda x_i+u_i,\quad x_i(0)=x_{i0}$$

$$\dot{y}=-\lambda y+V(t,\varphi_1,\varphi_2,y,x_1,\ldots,x_m,u_1,\ldots,u_m),\quad y(0)=y_0$$

yagona $(y(t),x_1(t),\ldots,x_m(t))$ yechimga ega bo'lsa, bu yerda $\varphi_1(t)$ va $\varphi_2(t)$, $t\ge 0$, berilgan funksiyalar.

6-ta'rif. Quvlovchilarning ixtiyoriy joiz $u_i=u_i(t)$, $i=1,\ldots,m$ boshqaruvlari uchun qochuvchining shunday V strategiyasi mavjud bo'lib, barcha $t\ge 0$ va $i=1,\ldots,m$ uchun $x_i(t)\ne y(t)$ shart bajarilsa, (7) qochish differensial o'yinida qochish mumkin deyiladi.

2-masala. Masala qochuvchi uchun V strategiya qurish va (7) qochish differensial o'yini yechishdan iborat.

2-teorema. $x_1,\ldots,x_m$ quvlovchilarning va y qochuvchining ixtiyoriy boshlang'ich holatlari uchun, (7) differensial o'yinda qochish mumkin bo'ladi.

1-tasdiq. Ixtiyoroy butun $p\ge 0$ son uchun $\sum_{k=p+1}^{\infty}a_k=\dfrac{a_{p+1}}{1-\beta}\le 2a_{p+1}$ bajariladi.

2-tasdiq. ***A*** holdagi ixtiyoriy $p\in\{1,...,k_1-1\}$ lar uchun va ***B*** holda ixtiyoriy musbat butun p lar uchun

$$t-\tau_{p+1}\le\frac{4}{\sigma-1-\alpha_1}a_{p+1},\qquad t\in[\tau_{p+1},\overline{\tau}]$$

munosabat bajariladi.

6-lemma. Qochuvchi ***A*** holda

$$v(t)=\begin{cases}V_k(t), & t\in[\tau_k,\tau_{k+1}),\ k=p,p+1,\ldots,k_1-1\\ V_{k1}(t), & t\in[\tau_{k1},\tau'_{k1})\end{cases}$$

strategiyadan va ***B*** holda

$$v(t)=V_k(t),\ t\in[\tau_k,\tau_{k+1}),\ \tau_k<\tau'_{k-1},\ k=p,p+1,\ldots.$$

strategiyadan foydalansin, u holda

$$|\eta(t)-\zeta_p(t)|\le\frac{16\sigma e^{\lambda T}}{\sigma-1-\alpha_1}a_{p+1},\qquad t\in[\tau_p,\tau'_p]\cap[\tau_p,\overline{\tau}]$$

tengsizlik bajariladi.

7-lemma. Qochuvchi ***A*** holda

$$v(t)=\begin{cases} V_k(t), & t\in[\tau_k,\tau_{k+1}),\ k=p,p+1,\dots,k_1-1, \\ V_{k1}(t), & t\in[\tau_{k1},\tau'_{k1}), \end{cases}$$

strategiyadan foydalansin va ***B*** holda

$$v(t)=V_k(t),\ t\in[\tau_k,\tau_{k+1}),\ \tau_k<\tau'_{k-1},\ k=p,p+1,\dots .$$

strategiyadan foydalansin, u holda

$$|\eta(t)-\xi_p(t)|>a_{p+1},\qquad \tau_p\le t\le\overline{\tau}$$

munosabat bajariladi.

8-lemma. ξ_p quvlovchi uchun $\tau'_p\le\tau'_{k_1}$ bo‘lsin, u holda

$$\eta_2(t)-\xi_{p2}(t)>a_{p+1},\quad t\ge\tau'_{k_1}$$

munosabat bajariladi.

Uchinchi bob **“Eksponensial integral cheklovli ko‘p quvlovchi va bitta qochuvchidan iborat qochish differensial o‘yini”** deb nomlanadi. Boshqaruv funksiyalariga eksponensial cheklovlar qo‘yilgan holda ko‘p quvlovchilardan qochish differensial o‘yini sodda harakatli tenglamalar bilan berilgan holda o‘rganiladi. Ushbu bobda har bir vaqt oralig‘ida qochuvchi uchun manyovrini tasdiqlovchi $r(t)$ funksiyasi quriladi va ko‘p quvlovchilardan qochishni kafolatlovchi qochuvchi strategiyasi quriladi. Shuningdek, har bir quvlovchi uchun yaqinlashish vaqti ko‘pi bilan bir marta sodir bo‘lishini va o‘yindagi quvlovchilarning umumiy yaqinlashishlar soni m dan oshmasligi isbotlanadi.

Bizga $\mathbb{R}^n$, $n\ge 2$ fazoda harakatlanayotgan m ta x_i, $i=1,...,m$ quvlovchilar va bitta y qochuvchi berilgan bo‘lsin. Ularning dinamikasi quyidagi tenglamalar orqali berilgan:

$$\begin{aligned} &\dot{x}_i=u_i,\quad x_i(0)=x_i^0\quad i=1,\dots,m,\\ &\dot{y}=v,\quad\ \ y(0)=y^0, \end{aligned}\tag{8}$$

bu yerda $x_i,x_i^0,y,y^0,u_i,v\in\mathbb{R}^n$, $n\ge 2$; $x_i^0\ne y^0$, $i=1,...,m$. o‘yinchilarning boshlang‘ich holatlari va ular boshlang‘ich vaqtda bir biriga teng emas ya’ni $x_{i0}\ne y_0$. $u_1,\dots,u_m$ va v mos ravishda quvlovchilar va qochuvchining boshqaruv parametrlari.

7-ta’rif. O‘lchovli $u_i(t)$, $t\ge 0$ funksiya x_i quvlovchining joiz boshqaruvi deyiladi, agar u quyidagi eksponensial chegaralanishni qanoatlantirsa:

$$\int_0^t|u_i(s)|^2\,ds\le\rho_i^2e^{2lt},\quad i=1,\dots,m,\tag{9}$$

bu yerda $\rho_1,\rho_2,...,\rho_m$ va l berilgan musbat sonlar.

8-ta’rif. O‘lchovli $v(t)$, $t\ge 0$ funksiya y qochuvchining joiz boshqaruvi deyiladi, agar u quyidagi eksponensial chegaralanishni qanoatlantirsa:

$$\int_0^t|v(s)|^2\,ds\le\sigma^2e^{2lt},\tag{10}$$

bu yerda σ berilgan musbat son.

9-ta’rif. $V:[0,\infty)\times\mathbb{R}^{(2m+1)n}\to\mathbb{R}^n$

$$(t, y, x_1, ..., x_m, u_1, ..., u_m) \mapsto V(t, y, x_1, ..., x_m, u_1, ..., u_m)$$

funksiya qochuvchining strategiyasi deyiladi agar quvlovchilarning ixtiyoriy joiz $u_i = u_i(t)$, $i = 1, ..., m$ boshqaruvlari uchun quyidagi Koshi masalasi

$$\dot{x}_i = u_i, \quad x_i(0) = x_i^0, \quad i = 1, 2, \ldots, m,$$
$$\dot{y} = V(t, y, x_1, ..., x_m, u_1, ..., u_m), \quad y(0) = y^0,$$

yagona $(x_1(t), \ldots, x_m(t), y(t))$, $t \geq 0$ yechimga ega bo‘lsa va u quyidagi tengsizlikni qanoatlantirsa

$$\int_0^t |V(s, y(s), x_1(s), \ldots x_m(s), u_1(s), \ldots, u_m(s))|^2 \, ds \leq \sigma^2 e^{2lt}.$$

10-ta’rif. Quvlovchilarning ixtiyoriy joiz $u_i = u_i(t)$, $i = 1, ..., m$ boshqaruvlari uchun qochuvchining shunday V strategiyasi mavjud bo‘lib, barcha $t \geq 0$ va $i = 1, \ldots, m$ lar uchun $x_i(t) \neq y(t)$ shart bajarilsa, u holda (8)-(10) o‘yinda qochish mumkin deyiladi.

3-masala. (8)-(10) ko‘p quvlovchilardan qochish differensial o‘yinini kafolatlovchi y qochuvchi uchun V strategiya qurish hamda ρ_i, $i = 1, ..., m$ va σ parametrlar uchun yetarli shartlarni topishdan iborat.

3-teorema. Agar quyidagi tengsizlik bajarilsa

$$\rho_1^2 + \ldots + \rho_m^2 < \sigma^2$$

u holda (8)-(10) differensial o‘yinda ko‘p quvlovchilardan qochish ketish mumkin bo‘ladi.

$\{a_k\}_{k=1}^{\infty}$ ketma ketlik $a_{k+1} = \beta \cdot a_k^4$, $k = 1, 2, ..$ formula bilan aniqlangan bo‘lsin. Bu ketma ketlik quyidagi xossaga ega:

2-xossa. Ixtiyoriy $p \geq 1$ uchun $\sum\limits_{k=p+1}^{\infty} a_k \leq 2a_{p+1}$ tengsizlik bajariladi.

I_k quyidagi $I_k = \cup_{j=k}^{m_0} [\tau_j, \tau_j')$, $I_{m_0+1} = \varnothing$ ko‘rinishdagi to‘plam bo‘lsin. Biz har bir vaqtda qochuvchi uchun manyovrni tayinlashda asosiy rol o‘ynaydigan $r : [0, T] \to \{0, 1, \ldots, m_0\}$ funksiyani quyidagicha aniqlaymiz

$$r(t) = \begin{cases} 0, & t \in [0, T] \setminus I_1, \\ k, & t \in [\tau_k, \tau_k'] \setminus I_{k+1}, \; k = 1, ..., m_0, \end{cases}$$

hamda $r(t)$ funksiya quyidagi xossaga ega.

3-xossa. $m_0 > 1$ bo‘lsin. U holda, $k = 1, 2, \ldots, (m_0 - 1)$ uchun quyidagi o‘rinli Agar $\tau_k' \leq \tau_{k+1}$ bajarilsa, u holda $\tau_k \leq t < \tau_k'$ uchun $r(t) = k$ bo‘ladi.

(i) Agar $\tau_k' \leq \tau_{k+1}$ bo'lsa, u holda $\tau_k \leq t < \tau_k'$ uchun $r(t) = k$ bo'ladi,

(ii) Agar $\tau_{k+1} \leq \tau_k'$ bo'lsa, u holda $\tau_k \leq t < \tau_{k+1}$ uchun $r(t) = k$ bo'ladi.

Misol. Agar quyidagi shart bajarilsa

$$0 = \tau_0 < \tau_1 < \tau_2 < \tau_2' < \tau_1' < \tau_3 < \tau_4 < \tau_3' < \tau_4' < \tau_5 < \tau_5',$$

u holda $r(t)$ funksiya 2-chizmada ko’rsatilganidek grafikka ega bo‘ladi.



Chizma 2. $r(t)$ funksiya grafigi.

$u_i(t)$, $i=1,...,m$ quvlovchilarning joiz boshqaruvlari bo‘lsin. Biz qochuvchi uchun strategiyani quyidagi (11)-(14) ko‘rinishida qurib olamiz.

$$v(t)=V_0(t)=\left(0,\alpha+\left(\sum_{i=1}^{m}|u_i(t)|^2\right)^{1/2}\right),\quad t\in[0,T]\setminus I_1, \tag{11}$$

$$v(t)=V_r(t)=(V_{r1}(t),U(t)),\quad t\in[0,T]\cap I_1, \tag{12}$$

bu yerda $r=r(t)$, $V_k(t)=(V_{k1}(t),U(t))$, $\tau_k\le t<\tau_k'$, $k=1,\dots,m_0$ bo‘lib, ular quyidagicha aniqlangan

$$V_{k1}(t)=\begin{cases}\alpha+|u_{k1}(t)|, & y_1(\tau_k)\ge x_{k1}(\tau_k),\\ -(\alpha+|u_{k1}(t)|), & y_1(\tau_k)<x_{k1}(\tau_k),\end{cases} \tag{13}$$

$$U(t)=\alpha+\left(\sum_{i=1}^{m}u_{i2}^2(t)\right)^{1/2}.$$

Eslatib o‘tamizki $U(t)$ k ga bog‘liq emas. Nihoyat, quyidagicha bo‘lsin

$$v(t)=\left(0,\left(\sum_{i=1}^{m}|u_i(t)|^2\right)^{1/2}\right),\quad t>T. \tag{14}$$

9-lemma. Agar qochuvchi (11)-(14) strategiyadan foydalansa, u holda
(a) Barcha $k\in J_0=\{1,...,m_0\}$ lar uchun, (i) $\tau_k\le T_0$ va (ii) $\tau_k'\le T$ larga ega bo'lamiz
(b) Agar biror $i\in\{1,...,m\}$ lar uchun $y_2^0\ge x_{i2}^0$ bo'lsa, u holda barcha $t>0$ uchun $y_2(t)>x_{i2}(t)$ bo‘ladi.

10-lemma. x_p quvlovchi $\tau_p\le t\le\tau_p'$ oraliqda ixtiyoriy joiz $u_p(t)$ boshqaruv qo‘llasin, u holda quyidagi tengsizliklar bajariladi.

$$|z_p(t)-x_p(t)|>\frac{\alpha a_p^2}{6\sigma^2e^{2lT}},\ \ \tau_p\le t\le\tau_p',\quad \text{va}\quad y_2(t)-x_{p2}(t)\ge a_p,\ \ t\ge\tau_p'.$$

11-lemma. Quyidagi baho o‘rinli bo‘ladi

$$| y(t) - z_p(t) | \le 6\sigma e^{lT} \sqrt{\frac{a_{p+1}}{\alpha}}, \quad \tau_p \le t \le \tau'_p.$$

XULOSA

Dissertatsiyada boshqaruv funksiyalari geometrik va eksponensial cheklovlarga bo‘ysunuvchi ko‘p quvlovchidan iborat qochish masalalari o‘rganildi, bunda o‘yinchilar dinamikasi sodda va chiziqli differensial tenglamalar bilan ifodalangan.

Tadqiqotda asosiy natijalar quyidagilardan iborat:

1. Geometrik cheklovlarga ega ikki quvlovchi va bitta qochuvchili chiziqli differensial tenglamalar bilan berilgan qochish differensial o‘yini xal qilingan, qochuvchi uchun strategiya qurilgan hamda quvlovchilarning yaqinlashish soni ko‘pi bilan 3 dan oshmasligi isbotlangan.
2. Ko‘p quvlovchili qochish differensial o‘yinida qochuvchi uchun strategiya qurilgan. O‘yinchilar dinamikasi chiziqli differensial tenglamalar bilan berilgan. Quvlovchilarning yaqinlashish soni ko‘pi bilan $m(m+1)/2$ dan oshmasligi ko‘rsatilgan va ko‘p quvlovchidan qochishni ta’minlovchi yetarli shartlar olingan.
3. Boshqaruv funksiyalariga geometrik cheklovlar qo‘yilgan chiziqli differensial tenglamalar bilan berilgan qochish differensial o‘yinida har bir quvlovchi guruh hujumida faqat bir marta yaqinlashish sodir etishi isbotlanib, guruh hujumidan so‘ng kamida bitta quvlovchi keyingi guruh hujumida ishtirok etmasligi ko‘rsatilgan. Buning natijasida yaqinlashish vaqtlari soni chekli ekanligi ko‘rsatilgan.
4. Boshqaruv funksiyalariga eksponensial integral cheklovlar qo‘yilgan sodda harakatli qochish differensial o‘yinida qochuvchi uchun strategiya qurilgan va uning joizligi isbotlangan. Shuningdek, quvlovchilarning yaqinlashish soni m dan oshmasligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, ko‘p quvlovchili qochish masalalarini yechish uchun yetarli shartlar olingan hamda o‘yinchilar orasidagi masofa uchun quyi chegara aniqlangan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I.ROMANOVSKIY

INSTITUTE OF MATHEMATICS

TURSUNALIEV TUYCHIVOY GANIJON UGLI

DIFFERENTIAL GAMES OF EVASION FROM MANY PURSUERS WITH GEOMETRIC AND EXPONENTIAL CONSTRAINTS ON CONTROL FUNCTIONS

01.01.02 - Differential equations and mathematical physics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT - 2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mather sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of] education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under n B2024.1.PhD/FM1006.

Dissertation has been prepared at Institute of Mathematics.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website (http://kengash.mathinst.uz) and the "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisors:	**Ibragimov Gafurjan Ismailovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Official opponents:	**Ashurov Ravshan Radjabovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
	Ruziboev Marks Botirboevich Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place on «9» December 2025 at 16:00 at the meeting of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovsky. (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+998 78) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovsky (registered for № 215). (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+99 878) 207 91 40).

Abstract of dissertation sent out on «25» November 2025 year.
(Mailing report № 2 on «25»November 2025 year).

U.A. Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., senior researcher

A.A. Azamov
Chairman of scientific Seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
D.F.-M.S., Academician

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

Actuality and demand of the theme of dissertation. At the global level, the rapid advancement of scientific and technological progress increasingly demands the analysis of complex processes within the framework of mathematical control theory. In this regard, the theory of differential games occupies a central position, as it enables the modeling of conflict-driven dynamic systems and ensures their practical applications. When such processes are described by differential equations, they are treated as problems of differential games, while models based on discrete equations are studied within the framework of discrete game theory. Since these approaches share common characteristics, they are often regarded as components of the broader theory of dynamic games. This methodology plays a crucial role in developing optimal control strategies and effective solutions across various fields such as engineering, economics, biology, and medicine. Consequently, the correct identification and application of the elements of differential game theory remain of great importance in modern scientific research.

At present, the results obtained in various problems of differential game theory are extensively applied to the control and optimization of conflicting dynamic processes worldwide. Priority research directions include the study of multi-pursuer evasion differential games governed by ordinary and linear differential equations and their applications. Evasion problems with geometric constraints imposed on the players' controls correspond to physical processes that arise in practice under conflict-driven conditions. Moreover, in applied settings, more sophisticated types of constraints may emerge. In particular, the investigation of multi-pursuer evasion problems in differential games with exponential constraints is of significant practical importance, and such cases are analyzed comprehensively in the dissertation. Special emphasis is placed on their applications in engineering, economics, and other domains.

